

## XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARI VA ULARNING ESTETIK QOBILIYATLAR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16757571>

**Annotatsiya:** Maqolada xalq og'zaki ijodi janrlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Ertak, maqol, topishmoq, afsona va dostonlarning estetik tarbiya vositasi sifatidagi imkoniyatlari yoritiladi. Xalq og'zaki ijodini zamonaviy ta'limga uyg'unlashtirishning metodik asoslari ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, estetik tarbiya, boshlang'ich sinf, ertak, topishmoq, badiiy-estetik qobiliyat, didaktik mezon, estetik texnologiya, doston.

## ЖАНРЫ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭСТЕТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

**Аннотация:** В статье рассматривается роль жанров устного народного творчества в формировании художественно-эстетических способностей младших школьников. Анализируются воспитательные и эстетические возможности сказок, пословиц, загадок, былин и легенд. Обоснованы методические основы интеграции устного народного творчества в современное начальное образование.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, эстетическое воспитание, начальная школа, сказка, загадка, художественно-эстетические способности, дидактические критерии, эстетические технологии, былина.

## GENRES OF FOLK ORAL CREATIVITY AND THEIR ROLE IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC ABILITIES

**Abstract:** This article explores the role of folk oral genres in developing the artistic and aesthetic abilities of primary school pupils. It analyzes the educational and aesthetic potential of fairy tales, proverbs, riddles, epics, and legends. The article outlines methodological foundations for integrating folk oral creativity into modern primary education.

**Keywords:** folk oral creativity, aesthetic education, primary school, fairy tale, riddle, artistic-aesthetic ability, didactic criteria, aesthetic technologies, epic.

O'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirish, ularning go'zallikka bo'lgan munosabatini rivojlantirib, obrazli fikrlashini kengaytirish hozirgi ta'lim jarayonining muhim ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi janrlari beqiyos estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan tarbiyaviy manba sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Ular o'zida xalqning qadimiy tasavvurlari, badiiy tajribasi, axloqiy qadriyatlarini va estetik mezonlarini mujassam etgan bo'lib, o'quvchilar ongida go'zallikni anglash, baholash va ifodalash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari mazmun va shakl jihatdan rang-barang bo'lib, har biri o'ziga xos estetik ta'sir doirasiga ega. Masalan ertaklar o'quvchilarning tasavvurini boyitish, ijobiy va salbiy obrazlar o'rtasidagi farqlarni tushunish, xayoliy manzaralarni mushohada qilishda muhim vosita sanaladi. Topishmoqlar esa mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, mazmunli tushunchalar ustida ishlashga asos bo'ladi. Maqollar va matallar orqali o'quvchilar qisqa, ammo chuqur

ma'noli fikrlarni idrok etish, axloqiy-estetik xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Afsona va rivoyatlar tasavvur doirasini kengaytiradi, tarixiy-badiiy ongni uyg'otadigan bo'lsa, dostonlar dramatik voqealar, badiiy ifoda va musiqiy-kompozitsion tuzilmasi orqali estetik his-tuyg'ularni kuchaytiradi. Xalq og'zaki ijodining ushbu janrlari dars jarayonida maqsadga muvofiq qo'llanilganda, o'quvchilarda badiiy tafakkur va estetik qobiliyatlar izchil shakllanadi.

O.Madayev, M.Sulaymonov, M.Jumaboyev tadqiqotchilarning ilmiy adabiyotlarida xalq og'zaki ijodi janrlarining pedagogik va estetik salohiyatini chuqur tahlil qilgan bo'lsa rus va xorijiy olimlarning tadqiqotlari xalq ijodini ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarda estetik ongni shakllantirish borasida muhim ilmiy yondashuvlarni ilgari surgan. Jumladan, Bobunova xalq maqollarining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini tahlil qilgan bo'lsa, Doeva musiqiy va dramatik vositalarning estetik madaniyatga ta'sirini o'rgangan, Spiridonova esa sinfdan tashqari faoliyatda xalq ijodidan foydalanish samaradorligini asoslab bergan. Xalq og'zaki ijodining nazariy jihatdan o'rganilishi uni ta'lim-tarbiya jarayoniga ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadli ravishda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi. Estetik-funksional tipologiyaga tayanilgan holda xalq og'zaki ijodi janrlarini ularning badiiy obrazlilik darajasi, dramatik ifodaviylik xususiyati hamda hissiy ta'sir kuchiga ko'ra tasniflash mumkin bo'lib, bu yondashuv har bir janrning ta'limdagi estetik vazifasini aniqlashtirishga xizmat qiladi hamda janrlararo integratsiya asosida ertak, topishmoq, maqol kabi janrlarning uyg'un qo'llanilishi orqali o'quvchilarning obrazli fikrlash, ma'naviy-estetik anglash, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga keng sharoit yaratiladi. Didaktik-matn tanlash mezonlari xalq ijodi namunalarining dars jarayoniga integratsiyalashuvi uchun muhim omil bo'lib, bunda yoshga moslik, badiiy mazmun boyligi, axloqiy va estetik qimmatga ega bo'lishi mezon sifatida belgilanadi. Estetik qobiliyatlar diagnostikasi esa tasavvur, tafakkur, obrazli anglash va badiiy fikr yuritish kabi qobiliyatlarning bosqichma-bosqich shakllanishini baholashga imkon yaratadi. Estetik texnologiyalar dramatisatsiya, ifodali o'qish, hikoya yaratish, o'quvchi bilan faol muloqotga asoslangan metodlar orqali xalq og'zaki ijodining o'quvchi shaxsiga estetik ta'sirini kuchaytiradi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari ertak, topishmoq, maqol, afsona, doston kabi shakllar boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirishda boy tarbiyaviy va estetik salohiyatga ega didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu janrlar o'quvchilarda obrazli va mantiqiy tafakkur, tasavvur, badiiy anglash, baholash va ifoda qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq ijodining estetik-funksional tipologiyasini aniqlash, janrlararo integratsion modelni qo'llash, didaktik-matn tanlash mezonlarini ishlab chiqish, estetik qobiliyatlarni bosqichma-bosqich aniqlovchi diagnostik yondashuvlarni taklif etish va ijodiy-estetik texnologiyalarni zamonaviy darsga tatbiq etish samarali natija beradi. Xalq og'zaki ijodining darsga metodik integratsiyalashuvi nafaqat o'quv materialini boyitadi, balki o'quvchining estetik ongini, madaniy tafakkurini va shaxsiy qadriyatga asoslangan dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bois xalq og'zaki ijodi janrlarini faqat madaniy meros emas, balki ta'limning faol estetik komponenti sifatida qarash zamonaviy pedagogik yondashuvning muhim yo'nalishidir.

### References:

### Используемая литература:

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"
2. Бобунова А.С., Сергеева М.Г. Формирование духовно-нравственного пространства школьников в информационной среде // Проблемы современного педагогического образования. - 2021. - Вып. 70, ч. 1. - С. 61–64.
3. Гришина И.С. Формирование социально-личностного опыта у младших подростков посредством фольклора. - Пермь, 2021. -180 с.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. - Toshkent: Ma'naviyat, 2010. - 188 b.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - Toshkent: O'qituvchi, 2006. - 272 b.
6. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - Namangan: NDU nashriyoti, 2008. - 196 b.

